



## KORXONA FAOLIYATIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

*Abdusamatov Asadbek*

*Andijon davlat texnika instituti*

*“MMTX” yo‘nalishi 4- kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonada mehnat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Mehnat xavfsizligini ta'minlash nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki korxonaning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada mehnatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan investitsiyalar, xavfsizlik choralari kuchaytirish, xodimlarning salomatligi va ish unumdorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy ko'rsatkichlar misolida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** mehnat xavfsizligi, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv tizimi, investitsiya, ishlab chiqarish unumdorligi, barqaror rivojlanish.

**Kirish.** Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki har qanday korxonaning muvaffaqiyati nafaqat texnologik yangilanishlar yoki ishlab chiqarish hajmiga, balki xodimlarning salomatligi, ruhiy holati va xavfsiz mehnat muhiti darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Mehnat xavfsizligini ta'minlash nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki korxonaning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Ko'plab xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xavfsiz mehnat muhiti yaratilgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 15-25 foizga yuqori bo'ladi. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari natijasida har



yili 2,8 million kishi halok bo‘ladi, 374 milliondan ortiq ishchi turli darajadagi jarohat oladi. Bu yo‘qotishlar global iqtisodiyotga YaIMning 4 foizigacha zarar keltiradi. Demak, xavfsizlikni ta‘minlash – bu faqat inson salomatligini saqlash emas, balki iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olish demakdir.

Korxonada mehnat xavfsizligiga e‘tibor berish moliyaviy jihatdan ham foydali hisoblanadi. Xodimlar o‘zlarini himoyalangan his qilganida, ular ishga sadoqat bilan yondashadi, ishlab chiqarish intizomi mustahkamlanadi va ishlab chiqarishdagi tanaffuslar kamayadi [1]. Bu esa korxonada uchun barqaror ishlab chiqarish ritmini saqlash, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, xavfsizlik tizimiga yo‘naltirilgan investitsiyalar tezda o‘zini oqlaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi Mehnat Xavfsizligi Agentligi (EU-OSHA) hisob-kitoblariga ko‘ra, mehnat xavfsizligiga sarflangan har bir 1 yevro o‘rtacha 2,2 yevro iqtisodiy foyda keltiradi. Buning sababi - jarohatlar, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik va tibbiy xarajatlar kamayishi bilan bog‘liq. Xavfsiz mehnat muhiti yaratilgan korxonalarda xodimlarning o‘z ish joyida uzoq muddat ishlashi, tajriba to‘planishi va malaka oshirish jarayonining barqarorligi ta‘minlanadi. Shuningdek, mehnat xavfsizligi korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi omil sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyotida korxonaning obro‘-e‘tibori, brend ishonchliligi va korporativ imiji muhim rol o‘ynaydi. Xodimlar xavfsizligini birinchi o‘ringa qo‘yadigan tashkilotlar investorlar, hamkorlar va mijozlar tomonidan ishonchli hamkor sifatida e‘tirof etiladi. Natijada bunday korxonalar xalqaro tenderlarda ustunlikka ega bo‘ladi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyati ortadi.

Mehnat xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, ichki boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Xavfni baholash, profilaktik nazorat, muntazam treninglar va xavfsizlik auditlari ishlab chiqarish jarayonlarida intizomni oshiradi, texnik vositalarning nosozligini erta aniqlash imkonini beradi. Bu esa



ishlab chiqarishdagi uzilishlarning oldini olib, mahsulot sifatini barqaror ushlab turadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham mehnat xavfsizligini ta‘minlashga davlat siyosati darajasida katta e‘tibor qaratilmoqda. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, Mehnat kodeksi hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Inson qadri uchun” taraqqiyot strategiyasida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Korxonalarda xavfsizlikni boshqarish tizimlarini joriy etish, xodimlarni muntazam o‘qitish, shikastlanishlarning oldini olish bo‘yicha raqamli monitoring tizimlari joriy etilmoqda.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik madaniyati shakllangan tashkilotlarda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar 60-80 foizgacha kamayadi. Masalan, Yaponiyada “Zero Accident” (nol jarohat) dasturi asosida ishlaydigan yirik sanoat korxonalarida so‘nggi yillarda og‘ir ishlab chiqarish hodisalari soni 70 foizga qisqargan. Bunday yondashuvlar iqtisodiy jihatdan ham o‘zini oqlaydi, ishlab chiqarish to‘xtashlari kamayadi, sug‘urta xarajatlari pasayadi va umumiy ishlab chiqarish hajmi ortadi.

Zamonaviy korxonalarda mehnat xavfsizligi masalasi nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy jihatdan muhim, balki iqtisodiy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega. Xodimlarning salomatligi va ishlash sharoitlari yaxshilansa ularning ish unumdorligi oshadi, mehnatga layoqatsizlik davri qisqaradi va shu bilan birga xarajatlar pasayadi. Shu bois, mehnatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar korxonaning iqtisodiy samaradorligini mustahkamlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir evro yoki dollar miqdorida xavfsizlik va salomatlikka yo‘naltirilgan chora-tadbirlar korxonaga ikki barobar yaqin darajada qaytish (ROI - return on investment) berishi mumkin [2]. Masalan, International Social Security Association (ISSA) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda “Return on Prevention” koeffitsienti o‘rtacha 2,2 ga teng bo‘lgani qayd



etilgan - ya'ni har 1 evro xavfsizlikka sarflanganda o'rtacha 2,2 evro miqdorida iqtisodiy foyda olinishi mumkin.

Yana bir manba - European Agency for Safety and Health at Work (EU-OSHA) ma'lumotlariga ko'ra, xavfsiz ish muhitiga ega korxonalar faqat hujjatlarni bajarmaydi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi - "good OSH is good for business" tamoyili asosida ishlaydi.

Xodimlarning salomatligi va ishlash unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik ham aniq dalillar bilan tasdiqlangan. Masalan, WorkSafe Queensland tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, sog'lom va xavfsiz ish muhitida bo'lgan xodimlar kasallik tufayli mehnatga chiqa olmaslik holatlarida ancha kamroq bo'ladi, va har 1 AQSh dollari salomatlikni oshirishga sarflansa, mehnatda hosildorlik oshish va yo'qotilgan kunlar kamayishi hisobiga ikki barobar yaqin foyda berishi mumkin. Bunday investitsiyalarning qanday yo'nalishlari bor? Avvalo, mehnat xavfsizligiga yo'naltirilgan texnik-tashkiliy choralar xavf tahlili, jihozlarni yangilash, himoya vositalari yetkazib berish, xavfsizlik treninglari [3]. Masalan, tadqiqotlarda xavfsizlik infratuzilmasini yangilagan korxonalarda jarohatlar va to'liq ish kunidan mahrum bo'lish holatlari sezilarli darajada kamaygani ma'lum.

Ikkinchidan, xodimlarning salomatligini qo'llab-quvvatlash - bu ham samarali investitsiya hisoblanadi. Sog'lom xodim kamroq charchaydi, kamroq kasallik bilan bog'liq ta'til oladi va ishga ko'proq diqqat bilan yondashadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida uzilishlar, sifat muammolari va qayta ishlash zarurligi holatlarni kamaytiradi.

Uchinchidan, bu jihatlar korxonaning xarajat kamayishiga olib keladi, to'g'ridan-to'g'ri manbalar (tibbiy davolash, jarohatlar natijasida ishchi almashtirish, sug'urta to'lovlari) va bilvosita manbalar (mehnat to'xtashi, mahsulot sifati tushishi, xodim aylanishi) xarajatlari pasayadi. Masalan, Occupational Safety and Health Administration (OSHA) ma'lumotlariga ko'ra, xavfsizlikka sarmoya qilgan tashkilotlar ishchi kompensatsiyalari, jarohatlar va kasalliklar bilan bog'liq



zararlarni kamaytirganini qayd etishgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarishdagi uzilishlar, to‘xtashlar xodimning mehnatdan vaqtincha chetlanishi yoki jarohat natijasida almashtirilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Xavfsizlikni yaxshilash orqali bu turdagi uzilishlar minimallashtiriladi va ishlab chiqarish jarayoni barqaror bo‘ladi. Bu esa mahsulotni o‘z vaqtida yetkazib berish, ishlab chiqarish hajmini saqlash, resur-slardan samarali foydalanish kabi omillarni mustahkamlaydi. Go‘zal ishchi muhit xodimlarni saqlab qoladi, xodimlar kamroq chiqadi, almashtirish va trening uchun qo‘shimcha xarajatlar kamayadi, bu esa korxonalar xarajatlarini qisqartiradi hamda raqobatdoshlikni oshiradi. Shuningdek, investitsiyalarning o‘zini qaytarish muddati qisqa bo‘lishi mumkin. Masalan, bir tadqiqotga ko‘ra, xavfsizlik va salomatlik chora-tadbirlarini joriy qilgan korxonalarining ko‘pchiligi bir yildan kamroq muddatda sarmoyaning o‘zini qaytarishini (break-even) kuzatgan.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat xavfsizligi masalasi korxonaning barqaror faoliyati va iqtisodiy o‘shishining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qiladi, balki korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi [4]. Shu sababli, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda mehnatni muhofaza qilishga sarflanadigan mablag‘lar investitsiya sifatida qaraladi va ularning iqtisodiy qaytimi (Return on Prevention – ROP) maxsus usullar yordamida baholanadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Xalqaro Ijtimoiy Ta‘minot Assotsiatsiyasi (ISSA) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, xavfsizlik choralariga sarflangan har bir 1 yevro yoki dollar o‘rtacha 2 baravar foyda keltiradi. Ya‘ni, korxonada baxtsiz hodisalar sonining kamayishi, ishlab chiqarishning to‘xtab qolmasligi, xodimlarning ruhiy holati va ishga sodiqligining ortishi natijasida iqtisodiy samaradorlik oshadi. Masalan, Germaniyada o‘tkazilgan “Return on Prevention” loyihasida 300 dan ortiq kompaniya faoliyati o‘rganilib, xavfsizlikka



yo'naltirilgan har bir yevro 2,2 yevro iqtisodiy foyda keltirgani aniqlangan. Bu esa xavfsizlikka kiritilgan sarmoya uzoq muddatda o'zini to'liq oqlashini isbotlaydi.

Xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini baholashda bir necha amaliy yondashuvlar qo'llaniladi. Birinchi yondashuv - xarajat va foyda tahlili (cost-benefit analysis). Bu usulda korxonada xavfsizlik choralari uchun qilgan xarajatlarni va bu choralarning natijasida erishilgan foydani taqqoslaydi. Masalan, xodimlar uchun himoya vositalari xaridi, trening va o'quv dasturlariga sarflangan mablag'lar, natijada esa baxtsiz hodisalar kamayishi, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlar soni qisqarishi, sug'urta va tibbiy xarajatlarning kamayishi hisobga olinadi. Bu usul eng ko'p ishlab chiqarish, qurilish va energetika sohalarida qo'llaniladi.

Ikkinchi yondashuv - ROI (Return on Investment) usuli bo'lib, bu orqali xavfsizlik sohasiga kiritilgan investitsiyaning daromadlilik darajasi aniqlanadi. Masalan, Kanadadagi Mehnat va sog'liq instituti (IWH) tomonidan olib borilgan tadqiqotda qurilish, transport va ishlab chiqarish sohalarida xavfsizlikka kiritilgan har bir dollar 1,24 dan 2,14 dollargacha foyda keltirgani aniqlangan. Bu yondashuv nafaqat moddiy foydani, balki korxonaning obro'si, mijozlar ishonchi va xodimlar motivatsiyasiga ijobiy ta'sirini ham hisobga oladi.

Uchinchi amaliy yondashuv - ish samaradorligi tahlili (productivity-based analysis) bo'lib, bu usulda xavfsizlik choralari natijasida ishlab chiqarish unumdorligi qanday o'zgargani o'lchanadi. Masalan, Shvetsiyada o'tkazilgan tadqiqotlarda xavfsizlik treninglaridan so'ng ishlab chiqarish unumdorligi 8–10 foizga oshgani, kasbiy jarohatlar esa 25 foizga kamaygani aniqlangan. Bu esa xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish korxonada samaradorligini bevosita oshirishini ko'rsatadi.

To'rtinchi yondashuv - intervensiya dasturlarining iqtisodiy bahosi (intervention cost analysis). Bu yondashuvda xavfsizlikni oshirishga qaratilgan aniq dasturlar masalan, xavfli texnologiyalarni avtomatlashtirish, monitoring tizimlarini joriy etish yoki xavfsizlikni rag'batlantirish siyosatining natijalari iqtisodiy jihatdan



baholanadi. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreya korxonalarida xavfsizlik tizimlariga investitsiya kiritish natijasida mehnat jarohatlari 40 foizga, ishlab chiqarishdagi to‘xtashlar esa 30 foizga kamaygani qayd etilgan. Natijada, ishlab chiqarish barqarorligi ortib, korxonalar xalqaro bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolgan [5].

Xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan investitsiyalarni baholashda yana bir muhim jihat - immaterial (nomoddiy) foydalarni ham hisobga olishdir. Bunga xodimlarning ruhiy barqarorligi, jamoa muhitidagi ishonch, ishga sodiqlik va mehnat madaniyatining oshishi kiradi. Xalqaro tajribada bu omillar moddiy foyda bilan bir qatorda korxonaning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi omillar sifatida qaraladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, yuqori darajadagi xavfsizlik madaniyatiga ega korxonalarda xodimlarning ish joyini o‘zgartirish ko‘rsatkichi 50 foizga past, ish unumdorligi esa 15–20 foizga yuqori bo‘lgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xalqaro amaliyotlar mehnat xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy samaradorligini isbotlab bermoqda. Xavfsizlik sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar qisqa muddatda xarajat sifatida ko‘rinsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish barqarorligi, xodimlar salomatligi, korxonada obro‘si va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan har bir sarmoya korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining kafolati hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatqulova M.K. (2025). MEHNAT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari, 3(6), 102-114.
2. Sobirjon o‘g‘li, A. A., Habibjon o‘g‘li, J. R. A., & Murodjon o‘g‘li, A. I. (2025). KORHONA VA TASHKILOTLARDA MEHNAT MUHOFAZASI BO‘YICHA ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ISH



- BERUVCHINING VAZIFALARI. " Is' hoqxon Ibrat Followers" journal, 1(1), 71-83.
3. Farxod o'g'li, P. A. (2024). MEHNAT MUHOFAZASI VA UNING XAVFSIZLIGI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(1), 82-89.
  4. Абдуллаев, Б., & Эргашев, Х. (2017). ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВАМИ. In *Инновационные технологии на транспорте: образование, наука, практика* (pp. 246-249).
  5. Samandar o'g'li A. U. O 'ZBEKISTONDA MEHNAT MUHOFAZASI TIZIMI: HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO TAJRIBA //Tadqiqotlar. – 2025. – Т. 63. – №. 1. – С. 175-185.